

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.12/30.12.2019. Ped. 80.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

IGAMBERDIYEVA AZIZA ABDURASHITOVNA

**6-7 YOSHDAGI BOLALARNING TADQIQIY- TAJRIBA
MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Igamberdiyeva Aziza Abdurashitovna

6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish
texnologiyasini takomillashtirish..... 3

Игамбердиева Азиза Абдурашитовна

Совершенствование технологии формирования исследовательско-
экспериментальных умений детей 6-7 лет..... 23

Igamberdiyeva Aziza Abdurashitovna

Improving the technology of developing experimental skills of children aged
6-7 years 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 48

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.12/30.12.2019. Ped. 80.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

IGAMBERDIYEVA AZIZA ABDURASHITOVNA

**6-7 YOSHDAGI BOLALARNING TADQIQIY- TAJRIBA
MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1PhD/Ped.3793raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida www.mdomoi.uz va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djanpeisova Gavhar Erkinovna
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy oponentlar:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Kushakova Gulnora Egamkulovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti.

Dissertatsiya himoyasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "7" nojabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 64-uy. Tel.: (99871) 150-01-27; faks: (99871)150-01-27; E-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 64-uy. Tel.: (99871) 150-01-27; faks: (99871)150-01-27; E-xat: mtm-malaka.oshirish@exat.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "28" oktabr kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____ dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).



N.Sh. Abdullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sh. M. Otaqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K. D. Riskulova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon maktabgacha ta'lim tizimida 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini qiziqarli, sodda tajriba faoliyatlari orqali shakllantirish va bilish jarayonlarini rivojlantirish texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Mustaqil, mantiqiy va erkin fikrlash faolligini oshirishda individual yondashuv, texnologiyalarini takomillashtirish, refleksiv faoliyatda qiziqarli tajribalar vositasida fanga qiziqtirish, tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirishning metodik va didaktik ta'minotini takomillashtirish, tadqiqiy-tajriba faoliyatini interfaollashtirish modellarini yaratish, tasavvur va ijodkorligini noodatiy, qiziqarli tajribalar asosida sinab ko'rishga qaratilgan amaliy loyihalarni tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Dunyo maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ilmiy tadqiqot muassasalari tizimida ilg'or metodlar, pedagogik texnologiyalarni ta'lim va tarbiya jarayoniga qo'llash, maktabgacha yosh bolalarning intellektual anglash, kreativ, tanqidiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirish, tadqiqiy-tajriba faoliyati orqali bilish jarayonlarini shakllantirish, rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli, refleksiv va integratsion yondashuvlarni takomillashtirish, tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish, texnologiyalarni didaktik ta'minotini rivojlantirish hamda pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish hamda tizim faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan muhim me'yoriy - huquqiy hujjatlar qabul qilingan. "Biz uchun bolalarimizning ma'naviyati, bilimi, sog'ligi eng muhim masaladir. Bu esa soha mutaxassislarining, pedagog va ilmiy tadqiqotchilarni kasbiy malakalarini rivojlantirish darajasini yuksaltirish" ustuvor vazifa etib belgilandi.¹ Natijada 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirishning texnologiyalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil, 8-maydagi PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi PQ-4312-sonli qarori, maktabgacha ta'lim tashkilotining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi hamda mazkur sohaga tegishli boshqa bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

¹ <http://m.xabar.uz/uz/talim/shavkat-mirziyoyev-bog'cha>

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini atrof-olam, bilish jarayonini rivojlantirishning intellektual, ma'naviy, estetik, jismoniy rivojlantirish hamda pedagogik jarayonlarni takomillashtirish M.N.Azamova, M.M.Berdiyeva, D.R.Boboyeva, G.E.Djanpeisova, G.M.Nazirova, Z.Namozbayeva, F.R. Qodirova, M.A.Rasulxo'jayeva, N.N.Ravshanova, Sh.A.Sodiqova, K.A.Sobirova, I.I.To'ychiyeva, M.X.Umarova, T.L.Xurvaliyeva, F.D.Shermanova; ekologik va ta'limning umumpedagogik va metodik jihatlarini M.B.Kubayeva; kognitiv qobiliyatlarini tajribalar asosida rivojlantirish texnologiyasi bo'yicha G.S.Alixodjayevalar tadqiqotlar olib borishgan.

MDH davlatlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish hamda tadqiqiy-tajriba faoliyatiga oid tadqiqotlar O.N.Akulova, O.V.Afanaseva, Y.Y.Beryozina, I.A.Jdanova, O.V.Kireyeva, L.K.Ladutko, M.V.Mukayeva, N.N.Podyakov, S.A.Romanova, E.G.Sisoyeva, A.I.Savenkov, M.M.Togatay, U.T.Urazbakova, G.V.Vaskyukova, O.A.Vasilkova, O.V.Znamenskaya, S.V.Shklyar, A.Shetkinlar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlardan maktabgacha yoshdagi bolalarda tadqiqiy-tajriba faoliyati orqali atrof-muhit bilan tanishtirish, ekologik yondashuv asosida ta'lim - tarbiya jarayonlarini tashkil etish, tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish K.Adbo, P.Ashbrook, R.P.Bowles, C.V.Carulla, G.O.Connor, S.M.Falkiwiez, M.E.Ferreira, R.A.Fisher, M.Fleer, G.Fragkiadaki, L.Justice, M.Montessori, S.Raven, P.Rai, C.Rosicka, J.A.Wanner tomonidan yoritilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish Vazirligi, Yoshlar akademiyasi tomonidan tashkil etilgan "Akademik harakatchanlik" dasturi doirasida "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabga tayyorlov guruh bolalari tajribalari uchun laboratoriyalar tashkil etish metodikasi" mavzusi bo'yicha amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2022 - 2024y.y).

Tadqiqotning maqsadi 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasining pedagogik modelini takomillashtirish;

6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba faoliyati jarayonini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish metodikasi samaradorligini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish jarayoni tanlab olinib, Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri № 9, 19-sonli DMTT, Sirdaryo viloyati, Guliston shahar 1, 9-sonli DMTT, Toshkent shahar, Yunusobod tumani № 288-sonli DMTT, Yashnobod

tumani №559-sonli EDMTT, jami 6 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 365 nafar respondent: maktabga tayyorlov guruh pedagoglari (24 nafar) hamda 6-7 yoshli tarbiyalanuvchilari (341 nafar) ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini 6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilgari surilgan nazariy qarashlar va amaliy tavsiyalar, pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so'rovnomalari, savol-javob, didaktik tahlil, didaktik o'yinlar, tajriba-sinov, tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil, induktiv va deduktiv uslublaridan foydalanilgan holda asoslanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba faoliyati metodikasi bolalar tomonidan mustaqil bajariladigan muayyan loyihaga asoslangan "Evrika" laboratoriyasi, susambil issiqxonasi, ko'k terak landshafti, bog'dorchilik kabi tadqiqot maydonchalarida pedagogik diffuziya dinamikligini rivojlanish sohalar kesimiga integrativ inkorporatsiyalash asosida aniqlangan;

tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirishning pedagogik modeli bolalarning mustaqil faoliyatiga yo'naltirilgan yil kesimiga ko'ra tadqiqot klassifikatsiyasini mantiqan, mazmunli uyg'unlashtirishga qaratilgan "Animatsion" tadqiqiy-tajriba kompleksini kiritish asosida takomillashtirilgan;

bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini rivojlantirishda optimallashtirilgan jihoz va didaktik materiallar, ko'z va barmoqlar ritmikasi, xavfsizlik yo'riqnomalari, refleksiv ish varaqlari, jarayonli mnemojadval davomiyligini tizimli adaptivlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirishda taqsimlangan tadqiqot klassifikatsiyasiga asoslangan (jonli, jonsiz va inson qo'li bilan yaratilgan resurslar) hamda maqsadli ranglar arifmetikasi, tajribaga oid tasviriy boshqotirmalar, kreativ rebuslarni mustaqil yechishdagi natijalar motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv baholash ish varaqlari metodikasini kengaytirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha "Bolalarning ijtimoiy moslashuvi" nomli darslik yaratilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil, 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug'i asosida berilgan 302-0620 guvohnoma);

6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish hamda faoliyatni olib borishda susambil issiqxonasi, bog'dorchilik maydonchasi, ko'k terak landshaft maydonchalari tashkil etilgan;

6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish doirasida "Bolalar laboratoriyasi" tashkil etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Qo'llanilgan yondashuv va usullar, rasmiy manbalardan olingan nazariy va amaliy ma'lumotlardan foydalanilganligi, olingan empirik miqdorlarning matematik statistika jihatdan tahlil qilinganligi, amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalar ishonchli usullar yordamida tahlil qilinganligi, xulosa va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati 6–7 yoshli bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish asoslab berilganligi, bu jarayon uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirilganligi hamda 6–7 yoshli bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirishga oid takomillashtirilgan pedagogik model ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishning amaliy ahamiyati maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Fan va tabiat” rivojlanish markazidagi tadqiqiy-tajriba faoliyati jarayonida 6-7 yosh bolalarning “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturining namunaviy-mavzuiy rejaga muvofiq “Animatsion” tadqiqiy-tajriba to‘plami ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy loyiha doirasida bolaning shaxsiga yo‘naltirilganlik yondashuviga asosan metodik materiallar, tavsiyalar, xavfsizlik yo‘riqnomasi, ko‘z va barmoq ritmikasi namunalari, tadqiqot obyektlari pasportlari ishlab chiqilganligi va amalda joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba faoliyati metodikasi bolalar tomonidan mustaqil bajariladigan muayyan loyihaga asoslangan “Evrika” laboratoriyasi, susambil issiqxonasi, ko‘k terak landshafti, bog‘dorchilik kabi tadqiqot maydonchalarida pedagogik diffuziya dinamikligini rivojlanish sohalar kesimiga integrativ inkorporatsiyalash bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion Rivojlanish Vazirligi, Yoshlar akademiyasi tomonidan tashkil etilgan “Akademik harakatchanlik” dasturi doirasida olib borilgan. Shuningdek, “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida maktabga tayyorlov guruh bolalari tajribalari uchun laboratoriyalar tashkil etish metodikasi” mavzusi bo‘yicha tanlov grandini amaliyotga joriy etilgan. (AH-23/22, tartib raqami 2022-2024y.y); Natijada 6-7 yoshli bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishda pedagogik shart-sharoitlarni optimallashtirishga xizmat qilgan;

tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirishning pedagogik modeli bolalarning mustaqil faoliyatiga yo‘naltirilgan, yil kesimiga ko‘ra tadqiqot klassifikatsiyasini mantiqan, mazmunli uyg‘unlashtirishga qaratilgan “Animatsion” tadqiqiy-tajriba kompleksini kiritish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi “Maktabgacha ta’lim agentligi” tomonidan taqdim etilgan (2024-yil 7-maydagi 03-03/1-441-sonli “Ma’lumotnoma”); Natijada 6-7 yoshli bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini rivojlantirishda optimallashtirilgan jihoz va didaktik materiallar, ko‘z va barmoqlar ritmikasi, xavfsizlik yo‘riqnomalari, refleksiv ish varaqlari, jarayonli mnemojadval davomiyligini tizimli adaptivlashtirish yuzasidan tavsiyalar “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi” nomli darslik mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil, 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug‘i asosida berilgan 302-0620 guvohnoma); Natijada 6-7 yoshli bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishda shaxsiga yo‘naltirilgan,

integratsion, refleksiv, faoliyatli yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qilgan.

bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirishda taqsimlangan tadqiqot klassifikatsiyasiga asoslangan (jonli, jonsiz va inson qo'li bilan yaratilgan resurslar) hamda maqsadli ranglar arifmetikasi, tajribaga oid tasviriy boshqotirmalar, kreativ rebuslarni mustaqil yechishdagi natijalar motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv baholash ish varaqlari metodikasini kengaytirish bo'yicha takliflar "Bolalarning ijtimoiy moslashuvi" nomli darslik mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil, 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'i asosida berilgan 302-0620 guvohnoma); Natijada 6-7 yoshli bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish jarayonini samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, forumlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta nashr ishlari jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan pedagogika fanlari bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda respublika miqyosida 3 ta maqola shuningdek, 6 tasi xorijiy jurnal, 2 ta respublika konferensiya, 3 ta xalqaro konferensiya, 1ta darslik va 6 ta mahalliy, ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 138 sahifa matn, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan. Muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, metodlari aniqlangan. Tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan **birinchi bobida** maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishning dolzarbligi, maktabgacha yoshdagi bolalar tadqiqiy-tajriba faoliyatining mohiyati hamda milliy va xorijiy davlatlar tajribasi tahlili shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirishning psixologik jihatlari yoritilgan.

Mamlakatimizda ta'limni sifat jihatidan yangilash jarayoni jadal kechmoqda. Unda madaniy rivojlanish va shaxsiy salohiyat mustahkamlanmoqda. Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimining metodik ta'minotini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlar asosida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni intellektual rivojlanishiga e'tibor davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Bu esa soha mutaxassislarining, pedagog va ilmiy tadqiqotchilarni kasbiy malakalarini rivojlantirish darajasini yuksaltirish kabi muhim vazifalarni belgilaydi. Shuningdek, Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy tamoyillari bolalarni har tomonlama

jismonan, ruhan, intellektual shaxs bo‘lib shakllanishiga ilk yoshdan e‘tibor berish lozimligi va buning uchun barcha zarur sarmoya, metodik, didaktik ta‘minot ajratilishi bilan bog‘liq hujjatlarni mustahkamlashga qaratilgan “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi ham jamiyatda mazkur masalani nechog‘lik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-152 sonli Farmoni ijro etish doirasida maktabgacha ta‘lim sifati oshirish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish borasida islohotlar yoritiladi².

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib respublikamiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari tahlil etildi. Bulardan:

T.L.Xurvaliyeva maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish metodikasini takomillashtirishda pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish bolalarda tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish muhim jihat deb izohlaydi.

G.S.Alixodjayeva maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatlarini tajribalar asosida rivojlantirish texnologiyasini maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligi bolalarda mustaqillik, faollik, ijodkorlikka ongli yondashuv ko‘nikmalarini barqaror shakllantirish hamda hissiy zo‘riqishlarni bartaraf etishga qaratilgan ta‘limiy o‘yinlarni mehnatga yo‘naltirish imkoniyatlari bilan mazmunli uyg‘unlashtirish asosida yoritgan.

MDH olimlari tomonidan o‘rganilgan tadqiqot ishlarida O.V.Znamenskaya “Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish” mavzusi dolzarbli va bu borada tadqiqot ishini olib borish va rivojlantirish muhim deb hisoblaydi. M.I.Lisina, N.N.Poddyakov, A.M.Matyushkin mualliflarning asarlarida qidiruv faoliyati tashabbuskorlik va ijodiy mustaqillikni namoyon eta oladigan faol, ijodiy shaxsni shakllantirish vositasi, kognitiv faollikni oshirish usuli sifatida qarashgan. A.D.Gusovanning fikricha, 6-7 yoshli bolalarda savollarga javob topishga bo‘lgan ehtiyoj kuchli bo‘ladi. Buning uchun bolaning bilish jarayonlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv qobiliyatni rivojlantirishda va atrof-olam bilan tanishtirishda esa bolalarni doimo rag‘batlantirish ijobiy samara beradi deb bilgan.

Shuningdek, 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishga oid bir qancha xorij olimlari tadqiqot olib borishgan. Ulardan K.Adboning fikricha maktabgacha ta‘lim tashkilotida tajriba faoliyatlari o‘yin texnologiyasi asosida tashkil etilishi orqali ijobiy samaraga erishiladi, deb izohlaydi. J.Piaje “Tajriba” atamasini quyidagicha bayon etgan. Uning fikricha, intellektual rivojlanishning dastlabki davri bu maktabgacha yosh davridir. Bolalar nafaqat kuzatadilar va amaliy o‘rganish imkoniyatiga ham egadirlar deb biladi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-152 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-7128182>

Tadqiqiy-tajriba faoliyatining mohiyatiga bildirilgan olimlarning tahlili o'rganildi, tahlil etildi va natijada bizning ishchi ta'rifi quyidagicha berildi:

“Tajriba” – bu kuzatuv, sinab ko'rish, tahlil etish, obyektning noma'lum xususiyatlarini amaliy jihatdan anglash jarayoni.

“Tadqiqiy-tajriba faoliyati”– bu bolaning ilk go'daklik davridan to inson umrining so'ngiga qadar qidiruv, kuzatuv, o'rganish, tahlil qilish, muammolarga yechim izlash va bilish jarayonidir.

“Tadqiqiy-tajriba malakalari”- ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan tadqiqiy-tajriba vazifalarni muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shaklidir.

Ilmiy tadqiqot ishlari doirasida metodik ta'minot bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkazilgan anketa-so'rovnomalar orqali quyidagi muammo aniqlandi. Unga ko'ra metodik ta'minotlar, o'quv resurslarni o'qitish metodi kesimida texnologiyalarni takomillashtirib borishda xorijiy tajribalarni transformatsiyalash tadqiqiy-tajriba malakalarini takomillashtirishga yangicha yondashuvlarni tatbiq qilish ehtiyoji yuqori ekanligi aniqlangan. Negaki har qanday bola tabiatan tadqiqotchi bo'lib, tadqiqiy-tajriba faoliyati bolaning eng qiziqqan faoliyat turlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, bolalarning bilish jarayonlari elementar matematik malakalarini rivojlantirish, intellektual anglash, tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyatda qiziqarli tajribalar orqali bolalarni fanga qiziqtirish juda muhimdir.


Shuningdek, 6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba faoliyatlarini tashkil etish va olib borish yuzasidan bir qancha xorijiy davlatlarning tajribasi tahlil etildi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya, Finlandiya, Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH) kabi rivojlangan davlatlarning tadqiqiy-tajribaga oid usul, uslubiyat va pedagogik texnologiyalari tahlil etildi.

Tadqiqiy-tajriba faoliyati jarayoni qiziqarli, hissiyotlarga boy faoliyat turlaridan biridir. Bu borada maktabgacha 6-7 yosh bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Shu bois, bolalarning xotirasi faoliyatlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablar asosida takomillashib boradi. Maktabgacha 6-7 yosh bolalarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Yuqorida qayd etilgan bir qancha omillarni inobatga olib, maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini xavfsiz, qiziqarli, sodda tajriba faoliyatlari orqali shakllantirish esa bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantiradi va maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi .

Dissatsiyaning **“6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish”** deb nomlangan **ikkinchi bobida**

6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishning mazmuni, 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasining takomillashtirilgan pedagogik modeli, 6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishning didaktik ta'minoti haqida fikr yuritilgan.

6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba faoliyatida tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish tasnifi esa, 1-rasmda eks etgan.



1-rasm. 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba faoliyatida tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish tasnifi

Pedagogik texnologiya– bu ta’lim jarayonini oqilona tashkil etish, boshqarishda ta’lim sifati samaradorlikni oshirishning izchil pedagogik tizimidir. Tadqiqiy-tajriba faoliyatida pedagogik texnologiyalardan foydalanishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish muhim.

Tadqiqiy-tajriba faoliyatini interfaollashtirish. O‘yinlar, rolli o‘yinlar, guruh shaklda tashkil etilgan tajribalar, pedagog tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlar, ochiq va yo‘naltiruvchi savollar berish orqali bolalarda qiziqish uyg‘otish. Shuningdek, multimedia vositalaridan foydalanish. Masalan, animatsion tadqiqiy-tajriba faoliyatlar to‘plamlari;

Kreativ fikrlashni rivojlantirish. Muammoli vaziyatlarning yechimini topishda bolalarning turli xil va noodatiy fikrlari, mulohazalari orqali faoliyatlarni tashkil etish. Masalalar, turli loyihalar taklif qilish. Tasavvur va ijodkorlikni rivojlantirish uchun ochiq savollar berish;

Amaliy faoliyatlar tashkil etish. Tadqiqiy-tajriba faoliyatining maqsad va

vazifalaridan kelib chiqib, xavfsiz, oddiy, hamda mustaqil bildirgan turli xil va noodatiy fikrlarini qiziqarli tajribalarda sinab ko'rish uchun tashkil etish;

Individual yondashuv. Tadqiqiy-tajriba faoliyatiga oid didaktik tarqatma materiallarni taqdim etish. Masalan, lapbooklar, mnemojadvallar, rebuslar, oddiy tajriba to'plamlari, refleksiv ish varaqlaridan foydalanish ijobiy samara beradi.

Dissertatsiyaning konseptual sxemasi orqali ishning asosiy g'oyalari, maqsadi va tadqiqot ishining asosiy yo'nalishi, jarayoni tizimli yoritilgan.

Yuqoridagi fikrlar asosida 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasining takomillashtirilgan pedagogik modeli ishlab chiqildi. 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirilgan pedagogik modelning mazmuni quyidagicha izohlanadi. Ijtimoiy buyurtma: 6-7 yosh bolalarni ta'lim va tarbiya jarayoniga qo'yiladigan davlat talablariga asoslangan holda yoritilgan bo'lib, maqsad vazifalar belgilab olingan. Maktabgacha 6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishning metodologik asoslari mazmunida tamoyillar, yondashuvlar, omillar, darajalar, asoslar mazmuni bayon etilgan. Shuningdek, takomillashtirilgan pedagogik model maqsadli, mazmunli, texnologik va baholovchi bloklarni o'z ichiga oladi. Bloklar mazmunida ish shakllari, uslublar, usullar, vositalar, takomillashtirilgan pedagogik texnologiyalar, tamoyillar, yondashuvlar hamda vazifalardan iborat. Maqsadli blokning vazifalari mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi: 6-7 yoshli bolalarni tadqiqiy-tajriba malakalarini aniqlashtirish; tadqiqiy-tajriba faoliyatini tashkil etish; tadqiqiy-tajriba faoliyat ishlanmalarini ishlab chiqish hamda pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishdan iborat. Maqsadli blokning xavfsizlik tamoyili esa tadqiqiy-tajriba malakalarni shakllantirishda eng avvalo xavfsizlik qoidalariga pedagog va bolalarning amal qilishi bilan izohlanadi. Tadqiqiy-tajriba faoliyatining ketma-ket izchil tarzda amalga oshirilishi maktabgacha 6-7 yosh bolalarning tadqiqot mazmunini anglash, mantiqiy va erkin fikrlash faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir tadqiqiy-tajriba ishlanmasi mazmuni asosida ilmiylik tamoyili mavjud bo'lib, bunda bolalar nafaqat qiziqarli balki tajriba faoliyatining so'ngida xulosalar mantiqiy va ilmiy bo'lishiga e'tibor qaratish zarur.


Maqsadli blokning "Bilimdan mustaqil tajribaga" tamoyili mazmuni quyidagicha izohlanadi. Tadqiqiy-tajriba faoliyati davomida avvalo 6-7 yoshdagi bolalarga tadqiqiy-tajriba mavzusiga oid bilim beriladi. Mazkur bilim asosida pedagog bilan birgalikda tadqiqiy-tajriba faoliyatini amaliy bajarilishi bolalarda ko'nikma shakllanishini izohlaydi. Tadqiqiy-tajriba faoliyatida olingan bilimlarga ko'ra bir necha marotaba takroriy tadqiqiy-tajribalarni amaliy bajarilishi natijasida bolalarda ko'nikma mustahkamlanadi. Natijada 6-7 yoshdagi bolalarda bilimdan mustaqil tadqiqiy-tajriba faoliyati amalga oshirilishini kuzatish mumkin. Bu esa "Bilimdan mustaqil tajriba" tamoyilining nazariy va amaliy jihatini yoritadi. Tadqiqiy-tajriba faoliyatida shaxsga yo'naltirilganlik, faoliyatli, refleksiv va integratsion yondashuvlar maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirishda ijobiy samarani beradi.

Tadqiqiy-tajriba faoliyati jarayonida hamda yakuniy resurs obyektlaridan foydalangan holda rivojlanish sohalari, rivojlanish markazlarining uyg'unligi, bog'liqligi maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishning tamoyillarini amalda bajarilganligi bilan izohlanadi.

Mazmunli blokda aks etgan ish shakllari orqali tadqiqiy-tajriba faoliyati yakka tartibda, juftlikda, kichik va umumiy guruhlarda "Fan va tabiat" rivojlanish markazi hamda namunaviy "Bolalar laboratoriyasida" olib borilishi bayon etilgan. Shuningdek, tadqiqiy-tajriba faoliyatiga oid ko'rgazmali, amaliy, o'g'zaki uslublar orqali tadqiqot obyektining mazmun- mohiyati yoritilishi izohlangan. Kuzatuv, namuna, tasvirlash, izohlash usullari orqali tadqiqiy-tajriba faoliyatida 6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalari shakllantirish ko'zda tutilgan. Tadqiqot obyektiga oid mnemojadvallar, sxema-xaritalar, multimedia vositalari va mavzuga oid albom, lapbooklar takomillashtirilgan pedagogik modelning texnologik blok mazmunida aks etgan. Baholovchi blok mazmunida "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarida aks etgan indikatorlarga asoslangan holda motivatsion, kognitiv, faoliyatli, refleksiv mezonlar mazmuni yoritilgan.

6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishning didaktik ta'minoti bo'yicha metodik tavsiyalar, "Xavfsizlik yo'riqnomalari", "Didaktik materiallar"; "Mnemojadval", "Refleksiv ish varaqlari, "Ko'z va barmoq" ritmikasi, "Elektron tavsiyalar", "Fan va tabiat" rivojlanish markazida tadqiqiy-tajriba faoliyatlarini olib borishda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi mavzuviy rejasiga muvofiq tadqiqiy-tajriba ishlanmalari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Shuningdek, mualliflik "Animatsion" tadqiqiy-tajriba to'plamidan online foydalanish uchun QR-code orqali ma'lumotlar berilgan. Dissertatsiya ishi doirasida ishlab chiqilgan loyihaning amaliyotga joriy etilishi esa, bir qancha pedagogik texnologiyalarni takomillashtirishga asos bo'ldi. Xususan, tadqiqiy-tajriba faoliyati jarayonida o'yin, modellashtirish, AKT, STEAM, TRIZ, team building, loyiha, sog'lomlashtiruvchi, muammoli vaziyat, vizual texnologiyalari takomillashtirildi. Namunaviy "Bolalar laboratoriyasi", "Susambil issiqxonasi", "Ko'k terak" landshaft maydonchasi hamda "Bog'dorchilik" maydonchasini tashkil etildi va mazkur obyektlarning pasportlari ishlab chiqildi. Bu esa, 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishda ijobiy natija ko'rsatadi.

Shunday qilib, biz taqdim etgan pedagogik modelda obyektiv qonuniyatlarga asoslangan va mantiqiy ketma-ketlikda ishlab chiqilgan, pedagogik shart-sharoitlar, amalga oshirish mexanizmi belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi va belgilangan maqsadga ko'ra natija "Tadqiqiy-tajriba malakalari shakllangan 6-7 yoshli bola" (2-rasm).



2-rasm. 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasining takomillashtirilgan pedagogik model

Dissertatsiyaning “6-7 yosh bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari” deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi hamda tajriba-sinov ishlar natijalarining matematik-statistik tahlili haqida fikr yuritilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish jarayoning pedagogik sharoitlari, maktabga tayyorlov guruhida “Fan va tabiat” rivojlanish markazida 6-7 yoshli bolalarning tadqiqiy-tajriba faoliyatiga qiziqishlari hamda malakalarini shakllantirish texnologiyalarining samaradorligini aniqlash va takomillashtirish bo‘yicha tajriba- sinov ishlari 2021-2024-yillarda uch bosqichda amalga oshirildi.

I- bosqich aniqlashtiruvchi: 2021-2022 o‘quv yili;

II-bosqich shakllantiruvchi: 2022-2023 o‘quv yili;

III-bosqich umumlashtiruvchi: 2023-2024 o‘quv yili.

Biz tajriba-sinov ishlarini 3 ta hudud kesimida amalga oshirdik. Bulardan Toshkent shahrida, Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahrida Sirdaryo viloyati, Guliston shahrida EDMTT va DMTTlar tajriba-sinov obyektlari sifatida belgilab olindi. Tajriba-sinov ishlarining aniqlashtiruvchi bosqichi 2021-2022 o‘quv yillarda amalga oshirildi. Berilgan 1- jadvalda tanlab olingan 6 ta obyekt respondentlari: 24 nafar maktabga tayyorlov guruhi pedagoglari hamda 341 nafar 6-7 yoshdagi bolalar tajriba-sinov ishlari uchun 6 ta tajriba guruhi va 6 ta nazorat guruhi haqida to‘liq ma’lumot keltirilgan.

1-jadval

Tajriba-sinov ishlari tanlangan obyekt va respondentlari haqida umumiy ma’lumot


Shahar Viloyat	T/r	Shahar Tuman	DMTT_№_	Ped. soni	6-7 yosh bolalar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Toshkent shahri	1	Yashnobod	EDMTT №559	4	54	28	26
	2	Yunusobod	DMTT №288	4	55	26	29
Sirdaryo viloyati	3	Guliston shahri	DMTT №1	4	59	29	30
	4	Guliston shahri	DMTT №9	4	57	30	27
Farg‘ona viloyati	5	Qo‘qon shahri	DMTT №9	4	57	29	28
	6	Qo‘qon shahri	DMTT №19	4	59	30	29
Jami	6 obyekt			24	341	172	169

Tajriba-sinov ishlarining aniqlashtiruvchi bosqichi maqsadi:

6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish jarayonini o‘rganish.

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Fan va tabiat” rivojlanish markazida 6-7 yoshli bolalar bilan tadqiqiy-tajriba faoliyatining pedagogik jarayonini kuzatish;
- maktabga tayyorlov guruh pedagoglari “Ish reja”sini o‘rganish va tahlil qilish;

- maktabga tayyorlov guruh pedagoglari bilan “So‘rovnoma” o‘tkazish;
 - maktabgacha 6-7 yosh bolalar kesimida “Refleksiv ish varag‘i”ni yuritish.
- “6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba faoliyatidagi qiziqish va malakalarini aniqlash”;
- MTT da 6-7 yoshli bolalar bilan tadqiqiy-tajriba faoliyati uchun pedagogik sharoit o‘rganish va tahlili qilish.



3-rasm. MTTda 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirishda tadqiqiy-tajriba faoliyati uchun pedagogik sharoit tahlili

Tajriba-sinov ishlarining aniqlashtiruvchi bosqichida 6-7 yoshdagi bolalarning tadqiqiy-tajriba malakalarini shakllanganlik darajasi o‘rganildi. Aniqlashtiruvchi bosqich tahlili mezonlari “Ilk qadam” takomillashtirilgan Davlat o‘quv dasturi, “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”ga tayangan holda quyidagicha belgilandi:

